

Otaga hurmat



11:00 / 05.02.2019 9482

Aziz bolajonlar! Siz, albatta, bobo-buvilaringizni, ota-onangizni, aka-opalaringizni, umuman, yoshi kattalarni hurmat qilish zarur ekanini bilasiz. Bu ishingiz tahsinga loyiq. Bu bilimingizga amal qilish esa ko'plab savob keltiradi.

Musulmonlar o'z ota-onalariga hurmat ko'rsatish borasida hammaga ibratdir. Ota-onani e'zozlashni bizga sahobalar ham juda chiroyli tarzda o'rgatganlar.

Hishom ibn Urva otasidan rivoyat qiladi:

«Abu Hurayra ikki kishini ko'rib qolib, ulardan biriga:

«Bu kiming bo'ladi?» dedi.

«Otam bo'ladi», dedi u.

«Unday bo'lsa, uni ismini aytib chaqirma, oldiga tushib yurma va undan oldin o'tirma», dedi».

Demak, ota-onaning hurmati ushbu hadisi sharifda zikr qilingan narsalarda ham ko'rinar ekan. Farzand otasiga «Ota», deb yoki boshqa bir ehtirom ma'nosidagi so'zlarni aytib murojaat qilishi yaxshi ekan. Lekin boshqalarning ismini aytgandek, otasining ismini aytib chaqirish musulmonchilik odobiga to'g'ri kelmaydi.

Shuningdek, yo'lda yurganda ham otadan keyin yurish kerak, oldinga o'tish mumkin emas. O'tirishda ham avval ota, keyin esa bola o'tirishi lozim.

Qadrli bolajonlar, katta yoshdagi va olim kishilar paytini topib, yoshlarga ta'lim berishlari, odobli bo'lishga chorlab turishlari kerakligini ko'ryapsizmi? Sizga ham biror ish ustida kattalar saboq yoki tanbeh berishsa, ularni aslo og'ir olmang. Hammasi o'zingizning foydangiz uchun.

Musulmonchilik odobi bo'yicha, farzand ota-onasining ismini aytib chaqirishi to'g'ri emasligini ham bilib oldik. O'ylaymizki, orangizda bunday bolalar yo'q.

Yana bilishimiz kerakki, musulmonchilik odobi bo'yicha, farzand ota-onasining oldiga tushib yurishi to'g'ri emas. Musulmonchilik odobi bo'yicha, farzand ota-onasidan oldin o'tirishi to'g'ri emas.

«Odoblar xazinasini» kitobi asosida tayyorlandi